

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>G.M.Bozorova</b>	
Sayyid Sharif Jurjoniyning ontologik va gnoseologik qarashlari.....	115
<b>L.S.Sultonova</b>	
Sharq allomalarining ilmiy merosida bag'rikenglik va murosa madaniyati masalasi va uning yurtimiz taraqqiyotida tutgan o'rni.....	119
<b>U.K.Kurbanova</b>	
Abu Ismoil Abdulloh Ansoriy tasafuviy qarashlarining falsafiy tahlili .....	124
<b>M.H.Mo'minova</b>	
Ibn Sino asarlari va risolalarining ilm-fan taraqqiyotida tutgan o'rni .....	128
<b>K.J.Ochilova</b>	
Imom At-Termiziya oid tadqiqotlarning ilmiy tahlili .....	132
<b>B.X.Karimov</b>	
Ongni boshqarish falsafasi.....	136
<b>R.S.Raupova, Sh.Bobokalonova</b>	
Abu Ali Ibn Sino buyuk faylasuf va gumanist olim .....	141
<b>P.X.Qaxorov</b>	
Zamonaviy jamiyatda inson qadri va axloqiy me'yorlarning o'zgarishi .....	147
<b>U.M.Paxriddinov</b>	
Globallashuv jarayonlarining O'zbekistondaga mehnat migratsiyasiga ta'sirining ijtimoiy-falsafiy tahlili .....	152
<b>Z.B.G'ulomov</b>	
Dezinformatsion ziddiyatlar sharoitida yolg'on axborotlarni ijtimoiy fikr va jamoatchilik nazorati asosida tartibga solish istiqbollari.....	158
<b>A.A.Tojiddinov</b>	
Abu Ishoq Kalobodiy ilmiy merosining zamonaviy tadqiqotlarda o'rganilishi masalalari .....	164
<b>G.A.Qamariddinova</b>	
"Rashahotu aynil-hayot" asaridagi rashhalarda jamiyat rivojlanishiga doir g'oyalarning falsafiy tahlili .....	172
<b>H.H.Yuldashxodjaev</b>	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili.....	175
<b>H.H.Yuldashxodjaev</b>	
Musoxonxoja Dahbidiy asarlarida Xojagon-Naqshbandiya ta'limotidagi g'oyalarning qiyosiy tahlili (2-qism).....	180
<b>Z.I.Narziyev</b>	
Aziziddin Nasafiyning "Tanzil" asari - tasavvuf falsafasiga oid muhim manba .....	185
<b>M.M.Mamasaliyev</b>	
Postmodern jamiyatda o'zgalarga toqtatlilik qadriyatlarining falsafiy-intellektual asoslari.....	189

## SIYOSAT

<b>T.A.Azizov</b>	
Favqulodda ekologik vaziyatlarni bartaraf etishga oid davlat siyosatini amalga oshirish mexanizmlarining xorij tajribalarini qo'llash imkoniyatlari .....	193
<b>S.U.Yuldashev</b>	
Davlat boshqaruvida ijtimoiy-madaniy texnologiyalarning ratsionallashtirish .....	197
<b>O'.N.Ahmedova</b>	
Kuchli ijtimoiy siyosat va ma'nnaviy tarbiya strategiyasi .....	201
<b>X.R.Ikramov</b>	
Yangi O'zbekistonda fuqarolik xizmati sohasida kadrlarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash zaruriyati .....	205
<b>A.M.Abjalov</b>	
Jamoat xavfsizligi tizimida axborot texnologiyalarni joriy etishning ijtimoiy-siyosiy mohiyati .....	210
<b>G.B.Umarova, A.Nurullaeva</b>	
Mahalla – totuvlik va bag'rikenglik omili: Markaziy Osiyo mintaqasi tajribasi .....	214
<b>S.S.Yakubov</b>	
Kanada: milliy birlikka erishish tajribasi .....	218



UO'K: 911.2

**MAHALLA – TOTUVLIK VA BAG'RIKENGLIK OMILI: MARKAZIY OSIYO MINTAQASI  
TAJRIBASI**

**МАХАЛЛЯ – ФАКТОР СОГЛАСИЯ И ТОЛЕРАНТНОСТИ: ОПЫТ РЕГИОНА  
ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ**

**NEIGHBORHOOD – A FACTOR OF PEACE AND TOLERANCE: THE EXPERIENCE OF  
THE CENTRAL ASIA REGION**

**Gulbahor Umarova Berdiyevna<sup>1</sup>** 

<sup>1</sup>O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Siyosiy fanlar kafedrasi dotsenti, t.f.n.(PhD)

**Aziza Nurullaeva<sup>2</sup>**

<sup>2</sup>O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti tadqiqotchi

**Annotatsiya**

*Maqolada Yangi O'zbekistonda mahallalar juda katta tarixga ega bo'lib, o'zbek xalqining kundalik ijtimoiy hayotini va turmushini tashkil qilishda izlab topgan, asrlar davomida takomillashib, aholining millati, ijtimoiy kelib chiqishi, diniy e'tiqodlaridan qat'iyyat ularni birlashtiruvchi, uyushtiruvchi noyob ijtimoiy tuzilma bo'lib kishilarni faol ijtimoiy hayotga jalb etuvchi samarali vosita ekanligi hamda ahamiyatga molik masalalarni hal qilish vazifasi aynan ushbu mahalla organlariga yuklatilganligi, ular tegishli hududni rivojlantirish va bajariladigan ishlar holati uchun mas'ul ekanligi tahlil etilgan.*

**Аннотация**

В статье анализируется, что махалли в Новом Узбекистане имеют очень давнюю историю, являются уникальной социальной структурой, которая складывалась на протяжении веков в организаций повседневной общественной жизни и жизнедеятельности узбекского народа, объединяющей и организующей население независимо от национальности, социального происхождения и религиозных убеждений, и является эффективным инструментом привлечения людей к активной общественной жизни. Именно махалли несут ответственность за развитие соответствующей территории и состояние проводимых работ.

**Abstract**

*The article analyzes that neighborhoods in New Uzbekistan have a very long history, are a unique social structure that has been developed over the centuries in organizing the daily social life and livelihood of the Uzbek people, uniting and organizing the population regardless of their nationality, social origin, and religious beliefs, and is an effective tool for attracting people to active social life. It is precisely these neighborhood bodies that are responsible for the development of the relevant territory and the state of the work being done.*

**Kalit so'zlar:** Mahalla, Yangi O'zbekiston, O'zbekistonda Konstitutsiyasi, jamoat tashkilotlari, jamiyat, inson farovonligi, obod mahalla, xalq farovonligi.

**Ключевые слова:** Махалля, Новый Узбекистан, Конституция Узбекистана, общественные организации, общество, благополучие человека, процветающая махалля, благосостояние народа.

**Key words:** Mahalla, New Uzbekistan, Constitution of Uzbekistan, public organizations, society, human well-being, prosperous mahalla, people's well-being.

**KIRISH**

Mahalla – Markaziy Osiyoda shaharlar ichidagi hududiylar birlik bo'lib, u bizga o'tmishdan meros bo'lib qolgan. Mahalla cheklangan hududda istiqomat qiluvchi fuqarolar jamoasi. Unda odamlar faqat yaqin qo'shnichilik rishtalari bilangina emas, balki minglab yillar davomida yaratilgan ichki tartib-qoidalar, ma'nnaviy-axloqiy normalar, urf-odatlar va an'analar bilan bog'langan. Mahallalar juda katta tarixga ega bo'lib, o'zbek xalqining kundalik ijtimoiy hayotini va turmushini tashkil qilishda izlab topgan, asrlar davomida takomillashib, aholining millati, ijtimoiy kelib chiqishi, diniy e'tiqodlaridan qat'iyyat ularni birlashtiruvchi, uyushtiruvchi noyob ijtimoiy tuzilma bo'lib kishilarni faol ijtimoiy hayotga jalb etuvchi samarali vositadir.

Markaziy Osiyo mintaqasida o'tgan asning 90-yillarda mahalliy o'zini o'zi boshqaruvinining rivojlanishi o'ziga xos ob'yektiv jarayon bo'lib ularning vakolatlari va huquqlari shu mintaqadagi har bir davlatning tarixiy an'analaridan, xususiyatlaridan kelib chiqib belgilandi, faoliyatining samaraliligi esa jamiyat taraqqiyotining rivojlanish bosqichlarida qabul qilingan qarorlar bilan bog'liq bo'ldi.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Qozog'iston Konstitutsiyasining 89-moddasiga binoan, ushbu davlatda ham mahalliy o'zini o'zi boshqarish tan olingen bo'lib, aholi jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega. 2001-yil 23-yanvarda "Qozog'iston Respublikasida mahalliy davlat boshqaruvi va o'zini o'zi boshqarish to'g'risida"gi Qonuniga ko'ra bu davlatda viloyat, tuman, shahar, shahardagi tumanlar, ovul okrugi, ovul okrugiga kirmaydigan posyolka va ovullar hokimlari davlat boshqaruv sohasidagi vakolatlari bilan bir qatorda aynan mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari sohasidagi vakolatlarini ham amalga oshiradi. Mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal qilish vazifasi aynan ushbu organlarga yuklatilgan bo'lib, ular tegishli hududni rivojlantirish va bajariladigan ishlar holati uchun mas'uldirlar. Bu davlatning sohaga doir normativ-huquqiy xujjati tahlil etilganda, ularning hech birida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining vakolatlari to'la-to'kis aks etmagan bo'lsa-da, qonun bilan ularga bir qatorda majburiyatlar yuklatilgan. Ahamiyatli jihat shundaki, ushbu davlatda Respublika Prezidentining 2012-yil 28-noyabrdagi Farmoni bilan "Qozog'iston Respublikasida o'zini o'zi boshqarishni rivojlantirish konsepsiysi" tasdiqlangan bo'lib, bundan asosiy maqsad mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tizimini bosqichma bosqich 2013-2014-yillar (1-bosqich), 2015-2020-yillar (2-bosqich) yanada rivojlangan. [1]

Qirg'iziston Konstitutsiyasining 4-bo'limiga ko'ra ushbu davlatda mahalliy o'zini o'zi boshqarish masalalari tegishli ma'muriy hududiy birlklardagi mahalliy birlashmalar tomonidan amalga oshiriladi. Mahalliy birlashmalar mahalliy o'zini o'zi boshqarish jarayonida: birinchidan, mahalliy birlashma yig'ilishlarida jamiyat va davlat hayotidagi muhim masalalar va mahalliy ahamiyatdagi masalalarni muhokama qilish orqali; ikkinchidan, mahalliy kengashlar deputatlariga saylovlari orqali; uchinchidan, mahalliy ahamiyatdagi alohida muhim masalalarda to'g'ridan to'g'ri ovoz berishda qatnashish va ijodiy qonunchilik tashabbusi orqali ishtirok etadi. Qirg'izistonda davlat organlari qonunda ko'rsatilgan vakolatlaridan tashqari mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga aralasha olmaydi. Bundan tashqari, ushbu davlatda hududiy jamoatchilik o'zini o'zi boshqarish organlari ham faoliyat yuritib, shahar hududni bir qismida yashovchi fuqarolarning mahalliy ahamiyatga molik masalalarni shaxsiy tashabbuslari bilan o'z javobgarliklari ostida hal etuvchi va amalga oshiruvchi mustaqil tashkilot hisoblanadilar. [2] Ular o'z faoliyatlarini mikrorayonlar, yashash komplekslari, uy, ko'cha, kvartal qo'mitalar, jamoatlar kengashi va qo'mitalari hamda boshqa shakllarda amalga oshiradilar.

Tojikistonda mahalliy o'zini o'zi boshqarish masalasi Konstitutsiyaning 6-bobida aks etgan bo'lib, unga ko'ra ushbu davlatda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari bevosita posyolka va qishloq miqyosida amalga oshiriladi hamda bu munosabatlar o'z navbatida Tojikistonning "Posyolka va qishloq o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi Qonuni bilan tartibga solingan. Bu organlar posyolka va qishloqlarda umumiy nom bilan "jamoat" deb ataladi. Posyolkaning o'zida "Jamoati shahrak", qishloq joylarda esa "Jamoati dexot" deb nomlanib, ular davlat organining joylardagi boshlang'ich qatlamidir. O'z navbatida, jamoat zimmasiga yuklatilgan vakolatlar yuzasidan o'z hududida istiqomat qilayotgan fuqarolar amal qilishi majbur bo'lgan qarorlar ham qabul qiladi. [3]

Turkmaniston (25.09.2020 yildagi yangi tahrir) dagi Konstitutsiyasining IV bo'limi 115-moddasida mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tizimi 2 qismdan, ya'ni Gengesh va hududiy jamoatchilik o'zini o'zi boshqarish organlaridan iborat. O'z navbatida Gengesh xalq hokimiyati organlari hisoblansa, hududiy jamoatchilik mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari xalq hokimiyati organlari hisoblanmaydi. Faqatgina Turkmanistonda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari sifatida mustahkamlangan hududiy jamoatchilik o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati va ularning vakolatlari borasidagi normalar boshqa biron-bir normativ-huquqiy hujjatda o'z aksini topmagan. Vaholanki, ushbu organlar eng quyi bo'g'inda mahalliy ahamiyatga molik masalalarni hal etishda munosib o'ringa egadirlar. [4]

O'zbekistonda Konstitutsiyasimizning 69, 127-moddalari, "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida"gi va "Fuqarolar yig'ini raisi va uning maslahatchilari saylovi to'g'risida"gi qonunlariغا muvofiq fuqarolar yig'inlarida saylovlari o'tkaziladi. Aynan shu qonunlar bilan davlat hokimiyati organlari zimmalarida bo'lgan 30 dan ortiq vakolatlar bosqichma bosqich fuqarolar o'zini o'zi boshkarish organlarining zimmalariga o'tkazildi. Xususan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari davlat hokimiyati tizimiga kirmsligi ko'rsatildi. Mamlakatimizda mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari tushunchasi ilmiy kategoriya sifatida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish

organlari deb yuritiladi hamda uning asosini mahallalar va qishloq fuqarolar yig'lnlari tashkil etadi hamda ular davlat hokimiyati tizimiga kirmaydi.

Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy taraqqiyoti bevosita ma'naviyatga asoslangan. Axloqiy me'yorlar ustuvor bo'lgan turmush tarzi, qarashlar va aqidalar asosida dunyoga kelgan. Har qanday sharoitda ham bir-birining ahvoldidan habardor bo'lish, bir-birini qo'llab-quvvatlash ma'naviy-ruhiy va ijtimoiy jihatdan muhim mezon sifatida o'zini namoyon etgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev "...qadimiylar saxovatpesha zaminimizda ko'p asrlar davomida turli millat va elat, madaniyat va din vakillari tinch-totuv yashab kelgan. Mehmondo'stlik, ezungulik, qalb saxovati va tom ma'nodagi bag'rikenglik bizning xalqimizga doimo xos bo'lgan va uning mentaliteti asosini tashkil etadi" deydi. [5]

"Millatlararo totuvlik bu konkret hayot muammolari, tiriklik ehtiyoji, har bir fuqaro kundalik turmush talablari bilan bog'liq bo'lgan va ana shu talablar, ehtiyojlar qay darajada qondirilayotgani bilan uzviy bog'langan, serqirra hayotning barcha jabhalarini o'ziga mujassam etgan ijtimoiy-ma'naviy hodisadir",

Yaponiyalik olim Shin Vatanabe millatlararo munosabatlarni bilan bog'liq muammolarni echishda uch xil yo'l mavjudligini ko'rsatadi.

**Birinchi yo'I AQSh**, Fransiya, Germaniya kabi davlatlarga xos bo'lib, u iqtisodiy farovonlikni ta'minlash, turli etnik guruhlarning moddiy ehtiyojlarini har tomonlama qondirishga asoslanadi.

Iraq, Afg'oniston, sobiq Yugoslaviya kabi mamlakatlarda namoyon bo'lgan ikkinchi yo'l zo'rlikka tayanishi va har qanday milliylikni bostirishga intilishi bilan ajralib turadi.

**Uchinchi yo'I Ning** eng yorqin timsoli O'zbekiston bo'lib, unda millatlararo hamjihatlikni ta'minlashda milliylik va umuminsoniylikning eng yaxshi jihatlarini o'zida mujassam etgan ma'naviyat, ta'lim, mehr-muruvvat kabi qadriyatlar negiziga asoslanib, siyosat olib boriladi.

Oz sonli millatlarni himoya qilish, ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish, millati va dinidan, ijtimoiy nasl-nasabi va mavqeidan qat'iy nazar, davlatning har bir fuqarosi uchun munosib turmush sharoitini yaratish talablari O'zbekistonning milliy siyosatining asosini tashkil etadi. Ana shuni nazarda tutib, O'zbekistonday 130 dan ortiq millat va elatga mansub turli dunyoqarash va turmush tarziga ega bo'lgan aholi yashaydigan, 10 dan ortiq diniy konfessiyalar faoliyat ko'rsatayotgan mamlakatda ijtimoiy murosa muhitini yaratish favqulodda muhim ahamiyat kasb etadi. [6]

2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning Harakatlar va 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot sari Strategiyalarida ham fuqarolik, millatlar va konfessiyalararo tinchlik va totuvlikni mustahkamlash, O'zbekiston tevaragida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik mintaqasini vujudga keltirish masalalari ustuvor yo'nalishlarning biri sifatida qayd etildi. Buni amalga oshirishning eng to'g'ri va samarali usuli mahalla imkoniyatidan foydalanish, odamlarning turar-joylaridagi muhitni sog'lomlashtirish edi. Millatidan, irqidan va dunyoqarashidan qat'iy nazar mamlakat fuqarosi o'z ehtiyojlarini qondirish uchun barcha imkoniyatlarga ega bo'lishi, o'z hayotini ixtiyoriy tanlov asosida yo'lga qo'yishi kerak. Ayni paytda u jamiyatda barqarorlik muvozanatini saqlash, murosaga kelish va bir-birini tushunish, bahsli tomon dalillarigaadolat mezonlari bilan yondoshishga, umumiy hamjihatlik ruhini tarkib toptirishga o'z hissasini qo'shishi lozim. Mahalla ayni ana shunday yuksak insoniy tuyg'uni shakkantiradi. Bunda ish joylari – korxonalar, muassasalardagina emas, balki kundalik turmush tarzida, maishiy hayot sharoitida mahallalarda izchil asosli ta'sirchan targ'ibot ishlari muhim ahamiyat kasb etdi. [7]

Millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish ustuvor vazifa bo'lib, etnik muammolarni hal etishda davlat faqatadolatga tayansagina, uning siyosatida milliy, irlar, diniy mansubligidan qat'iy nazar yaxlit mamlakat fuqarosi taqdiri qamrab olinsagina milliy totuvlik hodisasi umuminsoniy qadriyatga aylanadi. Bunda mahallaning roli benihoya katta. O'zbekistonda milliy va millatlararo munosabatlarni muayyan tizim sifatida tartibga tushirish, bu jarayonlarni demokratik tamoyillar vositasida boshqarish xuddi ana shu asoslarda amalga oshirilmoqda. Natijada, mustaqillikning dastlabki yillarda ro'y berishi muqarrar bo'lgan murakkab siyosiy bo'ronlar, iqtisodiy tangliklar, [8] ma'naviy-ruhiy parokandaliklarning oldi olindi, vujudga kelishi mumkin bo'lgan fojealarga juda katta siyosiy-ma'rifiy qat'iyat bilan barham berildi. Bu bevosita odamlarning yashash joylarida, qo'ni-qo'shnichilik sharoitida mahalla tushunchasining mohiyatida yaqqol ko'zga tashlanadi.

Aholini tabaqaviy, e'tiqodiy, milliy mansubliklaridan qat'iy nazar amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy ko'mak siyosati ularni umumiy taqdir va umumiy istiqbol manfaatlari doirasida yaqinlashtirib birlashtirmaqda. Mahalla muhitida ana shunday ma'naviy qudrat, ruhiy kayfiyat

## SIYOSAT

mavjud. Prezident Sh.M.Mirziyoev mahalla institutini ana shunday samarali va keng imkoniyatlaridan unumli foydalanish zarurligini ta'kidlamoqda.

"Millat o'z-o'zini anglash, ma'nnavi tiklanish jarayonlarida milliy mahdudlik va xudbinlikka yo'l qo'ymasligi muhim ahamiyatga ega. Milliy uyg'onish jarayonini boshdan kechirayotgan har bir xalq o'zining milliy qadriyatlarini umuminsoniy qadriyatlar bilan bog'liq holda his qilishi lozim. Odamlar mahallalarda bo'sh paytlarda qo'shni bo'lgan o'zga millat vakillari madaniyatidan, san'at va adabiyotidan xabardor bo'lishsa, ularni tushunishga intilishsa madaniy va estetik didlarining oshib borishiga erishadilar. Boshqa millat madaniyatini qadrlay oladilar". [9]

Fuqarolarning siyosiy faoliyatlari, o'z xohish-irodasini, maqsad va intilishlarini umumjamiyat va umumxalq manfaatlari bilan mushtarak holda hamda ana shu uyg'unlik mas'uliyatini chuqur anglagan tarzda siyosiy yo'llar bilan amalga oshirishi yuksak siyosiy saviyani talab qiladi. [10] Bu esa, o'z navbatida, yangilanishlar mohiyatini chuqur anglashni taqozo etadi. Shaxsnинг ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi hissasi jamiyat hayotida faolligi bilan belgilanadi. Bu fazilat faqat bevosita oila va mahallada shakllanadi.

Fuqarolarning ma'nnaviy-axloqiy etuklik darajasi millatlararo munosabatlar orqali, turli millat vakillarining umumiylarini maqsad, umumiylarini xonardon, mahalla, tuman, shahar va mamlakat yo'lidagi birlashuv bilan bog'liqdir. Ushbu g'oya zamirida millati va elatidan qat'iy nazar umumiylarini xonardon – O'zbekiston taqdiri uchun javobgarlik tuyg'usi har bir fuqaroning siyosiy mas'ullik va ma'nnaviy daxldorlik hissi bilan bevosita bog'liq. Ana shu daxldorlik hissi esa kichik Vatan – mahallada o'zini namoyon etmoqda. Bugun mamlakatimizda barqaror rivojlanayotgan madaniyatlar hamkorligi, turli millatlar o'rtaisdagi madaniy murosadan ijtimoiy murosaga, jamiyatda muvozanat konsepsiyasining amaliyotiga aylanmoqda. [11] Ana shunday jarayonda turmush sharoitida ko'pmillatli mahallada o'zaro bir-birini tushunish va bag'rikenglik muhim ahamiyatga ega. Bugun mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan 150 dan ortiq milliy-madaniy markazlarning faoliyati xuddi ana shu maqsadga yo'naltirilgan. Mahallada to'ylar, marosimlar, milliy bayramlar turli millat vakillari ishtirokida o'tkaziladi. Bu bir-birini tushunish, milliy qadriyatlarini hurmat qilish orqali jamiyatda umumiy ma'nnaviy-ahloqiy fazilatlarni mustahkamlanishiga olib kelmoqda.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda hozirgi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, millatlararo munosabatlarning rivojlanish bosqichlari O'zbekiston va Markaziy Osiyo mintaqasida yaxlit milliy-ma'nnaviy muhit shakllanganligidan, millati va elatidan qat'iy nazar har bir fuqaro ana shu muhitdan manfaatdor bo'layotganidan dalolat bermoqda. Bunda mahalladagi yuksak qadriyatlar tizimi yaxlit jamiyat ma'nnaviy qiyofasini shakllantirganligini ko'rish mumkin. Shuningdek, mahallada tinchlik, murosavaziyati barqarorlashdi. Kishilarning hayot kechirishlari va faoliyatlari uchun qulay ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy muhit yuzaga keldi. Mahalla a'zolarining ma'nnaviy-intellektual, madaniy saviyalarining doimiy takomillasib borishiga imkoniyatlar hamda mahallada muloqotlar doirasi kengayib, bevosita tashkilot hamda fuqarolararo munosabatlar tizimi tarkib topdi. Mahalla va jamiyat a'zolari tor millatchilik yoki mahalliychilik manfaatlari doirasida fikrash darajasidan yuksalib, butun mahalla doirasida fikrash malakasiga ega bo'lishi yaxlit jamiyat barqarorligiga zamin yaratadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Қозоғистон Республикаси Конституцияси // [www.constitution.kz](http://www.constitution.kz)
2. Закон Республики Казахстан «О местном государственном управлении и самоуправлении в РК», 23.01.2001 г. №148
3. Тоҷикистон Республикасининг Конституцияси // [www.president.tj](http://www.president.tj) – ТР Президенти матбуот хизмати расмий веб-сайти.
4. Закон Республики Таджикистан “Об органах самоуправления в поселки и селе”, 0404.2019 г. №1094
5. Туркменистан Республикасининг Конституцияси // [www.spinform.ru](http://www.spinform.ru).
6. Махалла: фуқаролар ўзини ўзи бошқаришининг ҳукуқий асослари. Тошкент, 2023 й., 40-бет
7. Жўраев Н. Тамаддунга даъват. Тошкент, “Ўзбекистон”-2018 й. 212-бет
8. Shodihev, J. J. (2023). ROLE OF NUMBERS IN HUMAN WORTH AND DEVELOPMENT. SCHOLAR, 1(28), 252-257.
9. Убайдуллаева Р., Бекмуродов М. Приоритет личностного развития// “Правда Востока”, 2004, 13 февраль
10. Jo'raqulovich, S. J. (2023). O'ZBEKISTON-INSON QADR TOPGAN YURT. SUSTAINABILITY OF EDUCATION, SOCIO-ECONOMIC SCIENCE THEORY, 2(13), 191-197.
11. Jo'raev N. Tamaddunga da'vat. Toshkent, “O'zbekiston”-2018 y. 214-bet.